NAVOIY VILOYATI QIZILTEPA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 31-oktabr | 227-5-72-Q/25 | Qiziltepa tumani hokimligi

Qiziltepa tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari tuman hokimligiga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, “Kambag‘al oilalar reyestri”gi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining

3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, “Kambag‘al oilalar reyestri”gi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qiziltepa tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Qiziltepa tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi quyidagi takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 166 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 15,1 foiz (25 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 5 foiz (8 kishi);

“Kambag‘al oilalar reyestri”dagi oilalarning a’zolari uchun 71,5 foiz (119 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 5,4 foiz (9 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 2.4 foiz (4 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0.6 foiz (1 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan

korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Qiziltepa tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Qiziltepa tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Qiziltepa tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Qiziltepa tumani hokiminig qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga

qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (R.Xudoyberdiyev):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha Qiziltepa tumani hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Hayitov zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Tuman hokimi **B.Bobomurodov**

Qiziltepa tumani hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
227-5-72-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Qiziltepa tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlar-ning umumiy soni	Shundan	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladi-gan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan:					
				Nogiron-ligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogiron-ligi bo‘lgan shaxslar	Oilaviy (maishiy) zo‘ravon-likdan jabrlanga n shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	Muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalari dan ozod qilingan shaxslar	Odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI:			**9824**	**436**	**152**	**25**	**7**	**106**	**9**	**4**	**1**
1	"O‘zyo‘lko‘prik klasterining Navoiy filiali"	203229093	318	18	6	0	1	3	1	1	0
2	Tuman Yo‘llardan foydalanish DM	200016338	124	4	3	0	0	3	0	0	0
3	Amu-Buxoro mashina kanali Qiziltepa tuman boshqarmasi	200017218	408	18	10	2	0	7	0	0	1
4	Barkamol avlod bolalar maktabi	202881734	66	3	1	0	0	1	0	0	0
5	Navoiy arxitektura va qurilish texnikumi davlat muassasasi	206731093	63	6	1	1	0	0	0	0	0
6	Navoiy viloyati	200017122	60	6	1	1	0	0	0	0	0

	Madaniyat va turizm boshqarmasi Qiziltepa tumani Madaniyat va turizm bo‘limi										
7	Navoiy viloyati sport boshqarmasi Qiziltepa tuman Sport maktabi	206908741	96	12	1	0	0	1	0	0	0
8	O‘zbekiston respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining Navoiy viloyati boshqarmasi Qiziltepa tuman bo‘limi	200017146	74	2	3	0	1	1	1	0	0
9	O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab talimi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan talim muassasalari agentligi tizimidagi Qiziltepa tuman ixtisoslashtirilgan maktabi	309865246	65	2	1	0	0	1	0	0	0
10	Tuman Tibbiyot birlashmasi davlat	200017114	2732	166	20	0	4	11	3	2	0

	muassasasi										
11	Qiziltepa tumani suv yetkazib berish xizmati DM	311114777	38	4	1	1	0	0	0	0	0
12	Qiziltepa tumani obodonlashtirish boshqarmasi davlat muassasasi	204584484	352	20	2	0	0	2	0	0	0
13	1-son politexnikumi maktabgacha talim tashkiloti	202324444	87	20	1	0	0	1	0	0	0
14	2-son politexnikumi maktabgacha talim tashkiloti	205767792	109	6	1	0	0	1	0	0	0
15	13-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi	305079349	50	9	1	1	0	0	0	0	0
16	3-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi davlat muassasasi	205767627	62	3	1	0	0	1	0	0	0
17	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	200017201	78	7	1	1	0	0	0	0	0
18	1-sonli "Oltin baliqcha" maktabgacha talim tashkiloti	207030238	51	8	1	1	0	0	0	0	0
19	2-sonli "Quyoshcha" maktabgacha talim tashkiloti	207086286	40	2	1	0	0	1	0	0	0
20	3-sonli "Nargiz" maktabgacha talim tashkiloti	207086319	40	6	1	0	0	1	0	0	0

21	4-sonli "Feruza" maktabgacha talim tashkiloti	207086230	50	6	1	0	0	1	0	0	0
22	5-sonli "Turnacha" maktabgacha ta’lim muassasasi	207086302	43	3	1	1	0	0	0	0	0
23	6-sonli "Kabutar" maktabgacha talim tashkiloti	207086326	42	4	1	0	0	1	0	0	0
24	7-sonli "Sitora" maktabgacha talim tashkiloti	207005987	54	4	1	0	0	1	0	0	0
25	8-sonli "Boychechak" maktabgacha talim tashkiloti	207028261	55	7	1	0	0	1	0	0	0
26	10-sonli "Orom" maktabgacha talim tashkiloti	207086294	35	0	1	0	0	1	0	0	0
27	11-sonli "Qaldirg‘och" maktabgacha talim tashkiloti	207086254	30	1	1	0	0	1	0	0	0
28	12-sonli "Guldasta" maktabgacha talim tashkiloti	207086247	46	2	1	1	0	0	0	0	0
29	13-sonli "Saodat" maktabgacha talim tashkiloti	207086223	39	3	1	1	0	0	0	0	0
30	14-sonli G‘uncha maktabgacha talim tashkiloti	207030221	50	4	1	0	0	1	0	0	0
31	15-sonli "Gulzor" maktabgacha talim tashkiloti	207086262	54	2	1	1	0	0	0	0	0

32	16-sonli "Oqqush" maktabgacha talim tashkiloti	207229185	61	2	1	0	0	1	0	0	0
33	17-sonli "Lola" maktabgacha talim tashkiloti	305522858	40	2	1	0	0	1	0	0	0
34	18-sonli "Yulduzcha" maktabgacha talim tashkiloti	305523104	23	2	1	0	0	1	0	0	0
35	19-sonli "Kamalak" maktabgacha talim tashkiloti	305523183	38	1	1	0	0	1	0	0	0
36	20-sonli "Shodlik" maktabgacha talim tashkiloti	305523279	44	3	1	1	0	0	0	0	0
37	22-sonli "Bolajon" maktabgacha talim tashkiloti	305696981	35	4	1	0	0	1	0	0	0
38	23-sonli "Nastarin" maktabgacha talim tashkiloti	305980788	25	1	1	0	0	1	0	0	0
39	24-sonli Tabassum maktabgacha talim tashkiloti	305981003	21	3	1	0	0	1	0	0	0
40	25-sonli "Hasancha" maktabgacha talim tashkiloti	305981138	25	1	1	1	0	0	0	0	0
41	27-sonli "Ko‘zmunchoq" davlat muassasasi	306346062	28		1	0	0	1	0	0	0
42	28-sonli Binafsha maktabgacha talim tashkiloti	306271671	34	1	1	1	0	0	0	0	0

43	30-sonli Marjona maktabgacha ta'lim muassasasi	306113241	41	1	1	1	0	0	0	0	0
44	31-sonli Qo‘ng‘iroqcha maktabgacha talim tashkiloti	306113313	37	3	1	1	0	0	0	0	0
45	32-sonli Bo‘ston maktabgacha talim tashkiloti	306938512	48	1	1	1	0	0	0	0	0
46	35-sonli Shukrona maktabgacha talim tashkiloti	306980984	41	4	1	0	0	1	0	0	0
47	36-son maktabgacha talim tashkiloti	307990189	51	3	1	1	0	0	0	0	0
48	37-sonli Ayronchi kelajagi nomli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	310058959	38	8	1	0	0	1	0	0	0
49	38-sonli maktabgacha talim tashkiloti	311159261	22	0	1	0	0	1	0	0	0
50	1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895095	164	23	3	0	0	3	0	0	0
51	2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908820	69	1	1	0	0	1	0	0	0
52	3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203181457	76	8	1	1	0	0	0	0	0
53	4-sonli Informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim	203180940	102	10	1	0	0	1	0	0	0

	maktabi										
54	5-sonli Ingliz tili fani chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan	203161164	214	18	3	0	0	3	0	0	0
55	6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895049	85	17	3	0	1	2	0	0	0
56	7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203340930	85	7	1	0	0	1	0	0	0
57	8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203180933	74	3	2	0	0	1	1	0	0
58	9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203381754	91	11	2	0	0	2	0	0	0
59	10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908734	60	5	1	0	0	1	0	0	0
60	11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895064	65	2	1	0	0	1	0	0	0
61	12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895056	144	12	1	0	0	1	0	0	0
62	13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203352472	122	3	1	0	0	1	0	0	0
63	14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203342818	79	4	3	0	0	3	0	0	0
64	15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203161172	176	6	1	0	0	1	0	0	0
65	16-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206905517	58	3	5	0	0	3	1	1	0
66	17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	205006891	72	4	1	0	0	1	0	0	0
67	18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	204902633	108	6	1	1	0	0	0	0	0
68	19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	205006852	126	5	2	1	0	1	0	0	0
69	20-umumiy o‘rta	206910091	80	1	2	1	0	1	0	0	0

	ta’lim maktabi										
71	21-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203340908	107	8	2	0	0	1	1	0	0
72	22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895104	87	5	1	0	0	1	0	0	0
73	23-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	205006765	74	1	1	0	0	1	0	0	0
74	24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908837	51	7	2	1	0	1	0	0	0
75	25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	205006813	150	15	1	0	0	1	0	0	0
76	26-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203340915	150	12	2	0	0	1	1	0	0
75	27-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203340923	145	17	1	0	0	1	0	0	0
77	28-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	205012403	99	10	2	1	0	1	0	0	0
78	29-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	205006805	77	10	1	0	0	1	0	0	0
79	30-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895032	61	1	1	0	0	1	0	0	0
80	31-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895071	74	4	2	0	0	2	0	0	0
81	32-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895017	65	5	1	0	0	1	0	0	0
82	33-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	205006884	80	1	2	0	0	2	0	0	0
83	34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206905532	47	3	1	0	0	1	0	0	0
84	35-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206905524	41	0	1	0	0	1	0	0	0
85	36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895088	47	2	1	0	0	1	0	0	0
86	37-umumiy o‘rta	206908780	76	5	1	0	0	1	0	0	0

	ta’lim maktabi										
87	38-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	204471830	66	1	1	0	0	1	0	0	0
88	39-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	202028867	35	4	1	0	0	1	0	0	0
89	41-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	306648485	36	0	1	0	0	1	0	0	0
90	42-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	306646267	87	6	2	0	0	2	0	0	0
91	43-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	306647186	56	2	1	0	0	1	0	0	0

Qiziltepa tumani hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
227-5-72-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Qiziltepa tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (*davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno)*** tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan:			
				Nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	Muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
JAMI:			**476**	**26**	**14**	**0**	**1**	**13**	**0**
1	"SVS NAVOIY" MCHJ XK	308508658	306	18	**10**	0	1	9	0
2	"YANGI ASR" fermer xo‘jaligi	203378732	170	8	**4**	0	0	4	0